

**KORXONALARDA FOYDA SOLIG'I HISOBINI TASHKIL ETISH TARTIBI
VA UNING MOLIVAVIY NATIJALARGA TA'SIRI**

Ilmiy rahbar: Yusupova Malika Botiraliyevna

Andijon davlat texnika instituti

“Buxgalteriya hisobi” kafedrası i.f.n dotsenti,

Samiyev Isroiljon Yaxyo o‘g‘li

Andijon davlat texnika instituti

“Buxgalteriya hisobi va audit”

yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Email: isroil0724@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalarda foyda solig'ini hisoblash va hisobot qilishning amaliy tartibi "SAXOVAT TEXS" mas'uliyati cheklangan jamiyati qo'shma korxonasi misolida tahlil qilingan. Maqolada daromadlarni hisoblash usullari, xarajatlarni soliq bazasidan chegirish tartibi, avans to'lovlari tizimi, kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlari hamda soliq yuki ko'rsatkichlari o'rganilgan. 2021–2023 yillar davomida korxonaning moliyaviy natijalari va foyda solig'i bo'yicha hisob-kitob dinamikasi tahlil qilinib, tegishli xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: foyda solig'i, soliq bazasi, daromad, xarajat, amortizatsiya, kechiktirilgan soliq, soliq yuki, avans to'lovlari, "SAXOVAT TEXS" MChJ QK.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar moliyaviy faoliyatini to'g'ri tashkil etish va soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. Foyda solig'i – korxonada daromadlari ustidan davlat nazoratini ta'minlovchi va byudjet daromadlarining asosiy manbalaridrdan biri hisoblanadi. Shu bois foyda solig'ini to'g'ri hisoblash va hisobga olish korxonada boshqaruvining ustuvor yo'nalishlaridan biridir [1]. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq islohatlari doirasida foyda solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirilgan, soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish va soliq yukini kamaytirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar qo'llanilmoqda. Shu munosabat bilan, amaliy korxonada misolida foyda solig'i hisobini tashkil etishni o'rganish va tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi [2]. Ushbu tadqiqotda Andijon viloyatidagi faol ishlab chiqarish korxonasi – "SAXOVAT TEXS" MChJ QK misolida foyda solig'ini hisoblash tartibi, daromadlar va xarajatlarni soliq maqsadlarida hisobga olish xususiyatlari hamda moliyaviy natijalar tahlil etilgan.

Asosiy qism. “SAXOVAT TEXS” mas'uliyati cheklangan jamiyati qo'shma korxonasi (Joint Venture LLC "SAXOVAT TEXS") 1999-yilda tashkil topgan, 2022-yilda xorijiy sarmoyalar jalb etilgan holda qayta tashkil etilgan. Korxonada Andijon viloyati, Shahrixon tumanida joylashgan bo'lib, asosiy faoliyat turi to'qimachilik

mahsulotlari (iplar) ishlab chiqarish va sotish hamda "Rohatijon" brendi ostida paxta yog'i ishlab chiqarishdan iborat. 2025-yil noyabr oyida korxonada 25 mlrd. so'm investitsiya hisobiga o'simlik yog'i ishlab chiqarish zavodini ishga tushirib, 200 ta yangi ish o'rni yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, foyda solig'ini to'g'ri hisoblash uchun, avvalo, barcha daromadlarni to'liq va aniq hisobga olish talab etiladi. Daromadlar uch asosiy guruhga bo'linadi: (1) mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan daromadlar – asosiy faoliyat natijasi; (2) asosiy vositalar va boshqa aktivlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar – bir martalik xususiyatga ega; (3) faoliyatdan tashqari daromadlar – dividendlar, foizlar, valyuta kursi farqlari va boshqalar [3].

Daromadlarni tan olishning asosiy tamoyili – hisoblash tamoyili bo'lib, unga ko'ra daromadlar pul mablag'lari haqiqatda kelib tushgan vaqtdan qat'i nazar, ular yuzaga kelgan davrda hisobga olinadi. "SAXOVAT TEXTS" MChJ QKda daromadlar xuddi shu tamoyil asosida tan olinadi.

Korxonaning mahsulotlari asosiy qismi eksportga yo'naltirilganligi sababli, valyuta kurs farqlarini soliq maqsadlarida hisobga olish tartibi alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 320-moddasiga muvofiq, bo'naklarni qayta baholash natijasida yuzaga keladigan kurs farqlari soliq solinadigan bazaga ta'sir qilmaydi – bu yondashuv soliq risklarini kamaytiradi va hisobotning ishonchligini oshiradi.

1-jadval

"SAXOVAT TEXTS" MChJ QKning 2021–2023 yillardagi daromad ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil	O'zgarish 2023/2021
Sof tushum (sotishdan olingan daromad), ming so'm	2 363 852,70	2 617 833,30	2 671 810,66	+307 957,96 (+13,0%)
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, ming so'm	35 385,22	80 603,48	223 040,50	+187 655,28 (+530,3%)

Moliya faoliyatidan daromadlar, ming so'm	23 395,50	309 924,42	2 752,55	-20 642,95 (-88,2%)
Jami daromadlar, ming so'm	2 422 633,42	3 008 361,20	2 897 603,71	+474 970,29 (+19,6%)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2021–2023 yillar davomida korxonaning sof tushumi 13,0 foizga oshgan. Bu korxonada mahsulotlariga bo'lgan talabning barqarorligini ko'rsatadi. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari 2023 yilda keskin o'sgan (530,3 foiz), bu asosan valyuta kursi farqlari va qo'shimcha xizmatlardan olingan daromadlar bilan bog'liq.

Xarajatlarni hisobga olish va soliq bazasiga ta'siri. Xarajatlarni to'g'ri aniqlash va ularni daromadlardan chegirish tartibi bevosita soliq bazasining hajmini belgilaydi. Xarajatlar uch asosiy guruhga bo'linadi: ishlab chiqarish va sotish xarajatlari (to'liq chegiriladi); faoliyatdan tashqari xarajatlar (cheklangan miqdorda chegirilishi mumkin); chegirilmaydigan xarajatlar (korxonaning o'z ehtiyojlari, shaxsiy iste'mol va boshqalar) [4].

Xarajatlarni soliq solinadigan bazadan chegirish uchun ular iqtisodiy jihatdan asoslangan, qonunga muvofiq hujjatlashtirilgan va daromad olishga qaratilgan bo'lishi shart. Qonunchilik xarajatlarni optimallashtirishning qonuniy usullarini ham taqdim etadi: investitsion imtiyozlar (yangi uskunalarning xarajatlarining 25 foizigacha chegirish), tezlashtirilgan amortizatsiya va zararlarni 10 yil davomida kelgusi davrlarga o'tkazish.

2-jadval

"SAXOVAT TEXS" MChJ QKning 2021–2023 yillardagi xarajat ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil	O'zgarish 2023/2021
Sotilgan mahsulot tannarxi, ming so'm	2 049 529,36	2 563 111,65	2 750 552,47	+701 023,11 (+34,2%)
Davr xarajatlari (ma'muriy va boshqa), ming so'm	106 142,24	225 686,47	180 233,41	+74 091,17 (+69,8%)

Moliya faoliyati bo'yicha xarajatlar, ming so'm	97 629,51	353 320,23	368 037,84	+270 408,33 (+277,0%)
Jami xarajatlar, ming so'm	2 253 301,11	3 142 118,35	3 298 823,72	+1 045 522,61 (+46,4%)

Tahlildan ko'rinib turibdiki, 2021–2023 yillar davomida korxonaning jami xarajatlari 46,4 foizga oshgan. Eng katta o'sish moliya faoliyati xarajatlari hisobiga sodir bo'lgan (277,0 foizga o'sgan). Bu o'sish, avvalo, valyuta kursi farqlari (2023 yilda 256,7 mln so'm) va kreditlar bo'yicha foiz xarajatlari (110,8 mln so'm) bilan bog'liq. Sotilgan mahsulot tannarxining 34,2 foizga keskin oshishi yalpi foydaning sezilarli pasayishiga olib kelgan.

Foyda solig'ini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 337–380-moddalari asosida amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlardan iborat: (1) soliq solinadigan bazani aniqlash; (2) soliq summasini hisoblash ($\text{baza} \times \text{stavka}$); (3) avans to'lovlarini hisobga olish; (4) buxgalteriya hisobida aks ettirish; (5) soliq deklaratsiyasini tayyorlash va topshirish; (6) soliqni byudjetga o'tkazish [5].

Avans to'lovlari tizimi korxonalar tomonidan yil davomida foyda solig'ini bosqichma-bosqich to'lab borilishini ta'minlaydi. 2026-yildan boshlab yillik daromadi 20 mlrd so'mdan yuqori bo'lgan korxonalar avans to'lovlarini amalga oshirishi shart etib belgilangan. Foyda solig'i va avans to'lovlari buxgalteriya hisobida 9810 "Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar" va 6410 "Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz" schyotlari orqali aks ettiriladi.

3-jadval

"SAXOVAT TEXTS" MChJ QKning 2021–2023 yillardagi foyda solig'i hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Soliqgacha bo'lgan foyda (zarar), ming so'm	+169 332,31	-133 757,15	-401 220,01
Foyda solig'i stavkasi	15%	0 (zarar)	0 (zarar)
Foyda solig'i summasi, ming so'm	11 522,57	0,00	0,00
Sof foyda (zarar), ming so'm	157 809,74	-133 757,15	-401 220,01

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2021 yilda korxonada 169 332,31 ming so'm soliqgacha foyda olgan va 15 foizlik stavka bo'yicha 11 522,57 ming so'm foyda solig'i to'lagan. 2022 va 2023 yillarda esa korxonada zarar ko'rganligi sababli foyda solig'i hisoblanmagan va to'lanmagan. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, korxonada ushbu yillardagi 534 977,16 ming so'mlik jami zararni kelgusi 10 yil mobaynida soliq solinadigan foydadan chegirish huquqiga ega.

Soliq yuki korxonaning umumiy daromadiga nisbatan to'lagan soliqlarining nisbiy ko'rsatkichi bo'lib, quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\text{Soliq yuki} = (\text{To'langan soliqlar} / \text{Sof tushum}) \times 100\%$$

4-jadval

"SAXOVAT TEXS" MChJ QKning soliq yuki ko'rsatkichlari (2021 yil)

Ko'rsatkich	Qiymat (2021 yil)
Foyda solig'i summasi	11 522,57 ming so'm
Soliqgacha bo'lgan foyda	169 332,31 ming so'm
Sof tushum (sotishdan olingan daromad)	2 363 852,70 ming so'm
Foyda solig'ining soliqgacha bo'lgan foydaga nisbati	6,8%
Foyda solig'ining sof tushumga nisbati	0,49%

2021 yilda korxonaning foyda solig'i soliqgacha bo'lgan foydaning atigi 6,8 foizini tashkil etgan – bu belgilangan 15 foizlik stavkadan ancha past. Sababi: soliq bazasini aniqlashda qonun hujjatlarida belgilangan xarajatlar va imtiyozlar to'liq hisobga olingan. Foyda solig'ining sof tushumga nisbati esa 0,49 foizni tashkil etgan, bu esa korxonada faoliyatida soliq resurslaridan samarali foydalanilayotganidan dalolat beradi.

Xalqaro standartlar (IAS 12) nuqtai nazaridan, buxgalteriya hisobi va soliq hisobi o'rtasidagi vaqtinchalik farqlar kechiktirilgan soliq aktivlari (KSA) va kechiktirilgan soliq majburiyatlarini (KSM) yuzaga keltiradi. Jumladan, tezlashtirilgan amortizatsiya qo'llanilganda KSM, ta'til zaxiralari va zararlarni keyingi davrlarga o'tkazishda esa KSA vujudga keladi. Bu farqlar korxonada moliyaviy hisobotining to'liqligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega [6].

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot quyidagi muhim xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Birinchidan, "SAXOVAT TEXS" MChJ QKning 2021–2023 yillardagi sof tushumi 13,0 foizga o'sgan bo'lsa-da, sotilgan mahsulot tannarxining 34,2 foizga keskin oshishi yalpi foydaning pasayishiga va 2022–2023 yillarda zararning yuzaga kelishiga olib kelgan.

Ikkinchidan, 2022 va 2023 yillarda korxonalar zarar ko'rganligi sababli foyda solig'i bo'yicha soliq majburiyati yuzaga kelmagan. 2021 yilda foyda solig'ining soliqgacha bo'lgan foydaga nisbatan ulushi 6,8 foizni tashkil etib, qonunchilikda belgilangan 15 foizlik stavkadan past bo'lgan.

Uchinchidan, 2022–2023 yillardagi jami 534,9 mln so'm zarar kelgusi 10 yil davomida soliq solinadigan foydadan qonuniy ravishda chegirilishi mumkin bo'lib, bu kelajakda soliq yukini kamaytirishga xizmat qiladi.

Tavsiyalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: xarajatlarni optimallashtirish orqali tannarxni pasaytirish; 2022–2023 yillardagi zararlarni rejalashtirish tizimini yo'lga qo'yish; investitsion imtiyozlardan – yangi texnologik uskunalarni sotib olish xarajatlarining 25 foizigacha soliq bazasidan chegirilishi imkoniyatlaridan keng foydalanish; soliq va buxgalteriya hisobi o'rtasidagi farqlarni aniq belgilash hamda hisob siyosatini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020.
2. Yusupova M.B., Soliev B.K. Moliyaviy hisob. Ma'ruzalar kursi. – Andijon: Andijon muhandislik-iqtisodiyot instituti, 2006. – 227 b.
3. Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – T.: "Fan va texnologiya", 2013. – 476 bet.
4. Ergasheva Sh.T. Buxgalterskiy uchetchik. Uchebnoe posobiye. – T.: "IqtisodMoliya", 2011. – 520 str.
5. Alborov R.A. Teoriya buxgalterskogo ucheta. – Izhevsk: FGBOU VO Izhevskaya GSKHA, 2016. – 300 s.
6. Zafarovna Z.S. Asosiy vositalar hisobining ichki auditi // Ustozlar uchun, 94(4), 2026. – 297-303-b.
7. Norboyeva D., Yo'ldashova Z. Asosiy vositalar hisobi // RussianUzbekistan Conference. – 2024. – S. 12-14.